



HUQUQBUZARLIKLARNING VIKTIMOLOGIK PROFILAKTIKASI CHORA-TADBIRLARINI TASHKIL ETISHNING BA'ZI JIHATLARI

Shoimov Norqobil Bobomurodovich

*O'zbekiston Respublikasi IIV Malaka oshirish instituti katta o'qituvchisi, yuridik fanlar nomzodi,
dotsent*

Annotatsiya: Maqolada huquqbuzarliklar profilaktikasi, xususan huquqbuzarliklarning viktimologik profilaktikasi sohasida olib borilayotgan chora-tadbirlar va profilaktika xizmatlarining aynan huquqbuzarliklarning viktimologik profilaktikasi bo'yicha faoliyati masalalari yoritib berilgan.

Tayanch so'zlar: huquqbuzarlik, huquqbuzarliklar profilaktikasi, viktimologik profilaktika, huquqbuzarlikdan jabrlanuvchi, huquqbuzarliklar profilaktikasi subektlari, ichki ishlar organlari, huquqiy asos.

Аннотация: В статье рассматриваются меры, принимаемые в сфере профилактики правонарушений, в частности виктимологическая профилактика преступлений, а также деятельность профилактических служб именно в сфере виктимологической профилактики преступлений.

Ключевие слова: преступность, профилактика преступлений, виктимологическая профилактика, жертва преступления, субъекты профилактики преступлений, органы внутренних дел, правовое поле.

Huquqbuzarliklarning barvaqt oldini olish sohasidagi islohotlarni yangi bosqichga ko'tarishimiz kerak.

SH.M. Mirziyoyev

Ma'lumki, huquqbuzarliklar profilaktikasini bevosita amalga oshiruvchi organ yoki muassasaning muayyan shaxsning huquqbuzarlikdan jabrlanuvchiga aylanishi xavfini kamaytirishga qaratilgan profilaktika chora-tadbirlarini qo'llashga doir faoliyati huquqbuzarliklarning viktimologik profilaktikasidir.

Viktimologiya jinoyat qurbonining xarakteri va xulq-atvorini, jinoyatchi bilan jinoyat sodir etilgunga qadar, jinoyat paytida va jinoyat sodir etilgandan keyingi aloqalari va o'zaro munosabatlarini tadbiq etadi. Individual jinoiy xulq-atvorning sababiyat nazariyasida viktimologik jihat ta'sirini hisobga olmaslik mumkin emas. Negaki, viktimologiya jinoyatchini jabrlanuvchi bilan bog'lab turgan munosabatlarini o'rganadi.

Bundan ko'zlangan maqsad ushbu munosabatlar jinoyat sodir etishining shart-sharoitlarini vujudga keltirishda qanday darajada ahamiyatga ega ekanligini, jinoyatchining harakatlari, uning motivini anglab yetishdir. Bundan tashqari, viktimologiya jinoyat sodir etishdan oldin bo'lgan va jinoyat paytidagi vaziyatlarni o'rganib chiqadi. Bu esa, viktim axloqning motivlari qanday ekanligini hamda ushbu vaziyatda jabrlanuvchining xulqi qanchalar kriminal ahamiyat kasb etganligini anglab yetishdir.



Viktimologik profilaktikani amalga oshirishda huquqbuzarliklardan jabrlanish ehtimoli yuqori bo'lgan shaxslarni aniqlash, ularning individual va ijtimoiy-psixologik xususiyatlaridan kelib chiqib, xavfsizlik choralari ko'rish, shuningdek fuqarolarga huquqiy tarbiya va ta'lim berish, qonunda nazarda tutilgan o'zini o'zi mudofaa qilish usullari va vositalari to'g'risida xabardor qilish ham shaxsning jinoyatlardan jabrlanishini oldini olishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Ta'kidlash lozimki, jinoyatdan jabrlangan shaxslarning xulqi ko'plab g'ayrihuquqiy qilmishlar sodir etilishiga zamin yaratadi:

a) vaziyat holatining o'ziga xosliklari, sog'lig'ining holati, his etish organlaridagi nuqsonlar, odatdagi vaziyatlarda noadekvat harakatlarni sodir etish bilan bog'liq alohida ruhiy holat;

b) o'z shaxsi, or-nomusi, obro'-e'tibori xavfsizligiga e'tiborsizlik bilan munosabatda bo'lish;

v) o'ziga nisbatan sodir etilgan zo'rlik, tajovuz, tan jarohatlari va jinoyat to'g'risida huquqni muhofaza qilish organlariga xabar bermaslik;

g) ig'vo (provakatsiya) qiluvchi xulq-atvor.

Viktimologik profilaktika oila-turmush doirasidagi huquqbuzarliklar profilaktikasi va undan jabrlanuvchi shaxslarning viktimligini kamaytirish hamda fuqarolarning huquqiy ongi va madaniyatini yuksaltirishda muhim profilaktika yo'nalish hisoblanadi.

Ma'lumki, shaxsning huquqbuzarliklardan jabrlanishiga olib keluvchi subektiv omillar uning jismoniy, psixologik, ijtimoiy belgilari va alomatlari bilan ajralib turadi hamda har qanday shaxsning muayyan turdagi huquqbuzarliklardan jabr ko'rishiga sabab bo'ladi. Ayrim tadqiqotlarda huquqbuzarliklardan jabrlanishga olib keluvchi harakatsizlik, passivlik, hissiyotga berilish kabi subektiv xulq-atvorni o'rganish zarurligi ta'kidlab o'tilgan¹.

Huquqbuzarliklarning viktimologik profilaktikasida huquqbuzarliklar profilaktikasi subektlarining ayrim turdagi huquqbuzarliklardan jabrlanish sabablari va ularga imkon berayotgan shart-sharoitlarni aniqlash, ularni bartaraf etish, shuningdek huquqbuzarliklardan jabrlanish ehtimoli yuqori bo'lgan ayrim toifadagi shaxslarni aniqlab, ularga profilaktik ta'sir ko'rsatishga qaratilgan maxsus chora-tadbirlarni ishlab chiqish va amalga oshirish nazarda tutiladi.

Huquqbuzarliklarning viktimologik profilaktikasining mazkur turi boshqalaridan shunisi bilan farq qiladiki, bunda shaxs, jamiyat yoki davlat manfaatlariga tajovuz qiluvchi xatar va tahdidlar aniqlanib, ularni bartaraf etish yuzasidan maxsus tadbirlar ishlab chiqiladi va amalga oshiriladi. Jumladan, hududiy profilaktika (katta) inspektori ichki ishlar organlari tomonidan amalga oshiriladigan maxsus viktimologik ahamiyatga ega bo'lgan tezkor-profilaktik tadbirlarda ishtirok etadi va huquqbuzarliklarning maxsus profilaktik chora-tadbirlarini o'ziga berilgan vakolat doirasida amalga oshiradi.

Profilaktika xizmatlarining asosiy faoliyat yo'nalishlaridan biri bo'lgan huquqbuzarliklarning viktimologik profilaktikasi bo'yicha faoliyatini samarali tashkil etish ichki ishlar organlarining boshqa sohaviy xizmatlari xodimlari, boshqa huquqni muhofaza

¹ Xudik V.A., Shigashov D.Y. Determiniruyushiyey faktori viktimnogo povedeniya u detey i ix kliniko-psixologicheskoye posledstviye // Vestnik. – M., 2013. – S. 28.



qiluvchi va davlat hokimiyati organlari xodimlari, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari va boshqa jamoatchilik tuzilmalari vakillari, korxona, muassasa va tashkilotlar bilan o'zaro hamkorligini yo'lga qo'yish orqali ta'minlanadi.

Profilaktika xizmatlarining aynan huquqbuzarliklarning viktimologik profilaktikasi bo'yicha faoliyatida hamkorlikning quyidagi ikki shakli farqlanadi:

1) huquqbuzarliklarning viktimologik profilaktikasida hamkorlikning amaliy shakli – bu huquqbuzarliklar profilaktikasi subektlarining jismoniy va yuridik shaxslarning xavfsizligini ta'minlash, ularning manfaatlariga xavf soluvchi xatarlar va tajovuzlarni bartaraf etishga qaratilgan, asosan xizmat ko'rsatishda ifodalanadigan faoliyatidir.

Huquqbuzarliklarning viktimologik profilaktikasi mazkur turining boshqalaridan farqi shundaki, unda jismoniy va yuridik shaxslarga o'zaro tuzilgan shartnomalarga ko'ra, to'lov asosida xizmatlar ko'rsatiladi.

2) huquqbuzarliklarning viktimologik profilaktikasi bo'yicha hamkorlikning axborot almashinuvi. Bunda profilaktika xizmatlarining ichki ishlar organlarining boshqa sohaviy xizmatlari xodimlari, boshqa huquqni muhofaza qiluvchi va davlat hokimiyati organlari xodimlari, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari va boshqa jamoatchilik tuzilmalari vakillari, korxona, muassasa va tashkilotlar bilan ma'lum bir huquqbuzarliklar bo'yicha jabrlanish ehtimoli yuqori bo'lgan muayyan shaxsni aniqlash, jabrlanuvchining shaxsini, huquqbuzarlik sodir etilishidagi o'rni va rolini, jabrlanishning sababi va unga imkon bergan shart-sharoitlar, ma'muriy hududda ko'p sodir etilayotganligi yoki ijtimoiy xavfi oshib borayotgan huquqbuzarliklar yoxud ma'lum bir toifadagi shaxslarning jabrlanish ko'rsatkichining tobora oshayotganligi bilan kriminogen vaziyat barqarorligiga tahdidlar kuchaygan hollarda, ma'lum bir turdagi huquqbuzarlik hamda jabrlanish ehtimoli yuqori bo'lgan ma'lum bir toifadagi shaxslar to'g'risida va ular bo'yicha boshqa ma'lumotlar to'g'risida o'zaro axborot almashadi.

Jinoyatdan jabrlanuvchilar bilan bog'liq muammolarni faqat muhokama qilish bilan chegaralanmasdan, aholini viktimologik profilaktika mazmunida tarbiyalashni davlat dasturlari darajasida keng miqyosda amalga oshirish lozim. Agarda viktimologik profilaktikaga alohida yondashib, bu boradagi muammolar o'z yechimini topmas ekan, unda huquqbuzarliklar profilaktikasi samaradorligiga yetarlicha erishib bo'lmaydi.

Shu boisdan, 2014-yil 14-mayda O'zbekiston Respublikasining «Huquqbuzarliklar profilaktikasi to'g'risida»gi qonuni¹ qabul qilinib, huquqbuzarliklar profilaktikasini bevosita amalga oshiruvchi organ va muassasalar, jumladan, ichki ishlar organlari tomonidan amalga oshirilishi zarur bo'lgan huquqbuzarliklarning viktimologik profilaktikasi chora-tadbirlari aniq belgilab berilgan.

Ichki ishlar organlari tomonidan huquqbuzarliklarning viktimologik profilaktikasi bo'yicha quyidagi chora-tadbirlarini amalga oshirish maqsadga muvofiqdir:

¹ O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2014 y., 20-son, 221-modda; 2015 y., 32-son, 425-modda; 2016 y., 52-son, 597-modda; 2017 y., 37-son, 978-modda; Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 05.01.2018 y., 03/18/456/0512-son; 16.01.2019 y., 03/19/516/2484-son, 2019 y., 2-son, 47-modda, 24.05.2019 y., 03/19/542/3177-son, 05.09.2019 y., 03/19/564/3690-son, 11.09.2019 y., 03/19/566/3734-son, 30.10.2019 y., 03/19/575/3972-son; Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021 y., 03/21/683/0375-son, 19.11.2021 y., 03/21/729/1064-son; 26.01.2022 y., 03/22/747/0064-son; 01.06.2022 y., 03/22/772/0460-son; 12.04.2023 y., 03/23/829/0208-son.



1. Huquqbuzarliklarning viktimologik profilaktikasini samarali tashkil etish.
2. Huquqbuzarliklardan jabrlanuvchilarga nisbatan shaxsning individual va ijtimoiy-psixologik xususiyatlarini hisobga olgan holda profilaktika tadbirlarini o'tkazish.
3. Aholiga huquqbuzarliklardan jabrlangan shaxslar o'rtasidagi nizolarni hal etish usullarini o'rgatish.
4. Huquqbuzarliklardan jabrlanuvchilarni aniqlash va himoya qilish bo'yicha chora-tadbirlarni ko'rish.
5. G'ayriijtimoiy xulq-atvor nisbatan tez-tez kuzatiladigan yoki huquqbuzarliklar tez-tez sodir bo'lib turadigan joylarni (hududlarni) muntazam ravishda nazorat qilish.
6. Huquqbuzarliklar profilaktikasining zamonaviy usullarini o'rganish va ularni amaliyotga joriy etish.

Huquqbuzarliklarning viktimologik profilaktikasi chora-tadbirlari eng avvalo, huquqbuzarliklardan jabrlanish ehtimoli yuqori bo'lgan shaxslarga ular ishtirokida vujudga keladigan nizolarni hal etishga hamda jismoniy va ruhiy xavfsizlikni ta'minlash, qonunda nazarda tutilgan o'zini o'zi mudofaa qilish usullari va vositalarini o'rgatish orqali amalga oshiriladi. Viktimologik profilaktika nuqtai nazardan, viktim holatlarning yuzaga kelishini o'rganish va ularni aholiga o'rgatish ham muhim ahamiyatga egadir.

Shundan kelib chiqib, huquqbuzarliklarning viktimologik profilaktikasini quyidagi yo'nalishda olib borish lozim:

- a) o'zining ijtimoiy, moddiy, jismoniy, ruhiy yoki biofizilogik holati bilan huquqbuzarliklardan jabrlanish ehtimoli bo'lgan shaxslarni aniqlash, ularning individual va ijtimoiy-psixologik xususiyatlaridan kelib chiqib, viktimologik profilaktika o'tkazish;
- b) oila-turmush doirasidagi huquqbuzarliklardan ma'naviy-ruhiy, jismoniy va moddiy zarar ko'rgan shaxslarni va ularga yetkazilgan zarar miqdorini aniqlash hamda uni qoplash choralari ko'rish, huquqbuzarlikdan jabrlanganning individual va ijtimoiy-psixologik xususiyatlaridan kelib chiqib, ularga ijtimoiy, huquqiy, psixologik yoki tibbiy yordam ko'rsatish;
- v) o'z joniga qasd qilishga moyil xulq-atvordagi hamda oilasida ma'naviy-axloqiy muhitga buzuvchi, shaxslararo nizolarni keltirib chiqaruvchi fuqarolarni aniqlab, bu boradagi viktimologik profilaktika ishlarini to'g'ri tashkil etish;
- g) ijtimoiy rehabilitatsiya qilish va moslashtirish markazlari bilan hamkorlikda oilaviy-maishiy zo'rlikdan jabrlangan, ayniqsa o'z joniga qasd qilishga moyil bo'lganlarni aniqlash, ularning kayfiyatini qo'zg'atadigan omillarni o'rganish va uni bartaraf etish choralari ko'rish.

Tadqiqot davomida fuqarolarning jinoyatlardan jabrlanish holatlarining yuqoriligi va unga imkon bergan sabab va sharoitlar tahlil qilinganida oila-turmush doirasidagi nizolar tufayli fuqarolarning jabrlanish ehtimoli yuqori ekanligi aniqlandi. Shu boisdan, oila-turmush doirasidagi huquqbuzarliklarning viktimologik profilaktikasi samaradorligini oshirish yuzasidan quyidagi chora-tadbirlarni amalga oshirish lozim:

ijtimoiy jihatdan xavfli ahvolda bo'lgan notinch oilalarni o'z vaqtida aniqlash, nizo kelib chiqish xavfi bo'lgan oilalar bilan viktimologik profilaktika ishlarini tashkil etish;



huquqbuzarlik yoki jinoyatlardan jabrlanishga moyilligi bo'lgan shaxslarni aniqlash va ularning zo'ravonlikdan jabrlanish ehtimolini kamaytirish bo'yicha tegishli choralar ko'rish; ma'muriy hududda g'ayriijtimoiy xulq-atvorli, huquqbuzarliklar sodir etishga moyil bo'lgan, huquqbuzarliklar sodir etgan shaxslarni aniqlash, ularning hisobini yuritish va ularga tarbiyaviy ta'sir ko'rsatish;

ijtimoiy mavqei, fiziologik holati, xulq-atvori, hayot tarzi bilan bog'liq holda huquqbuzarlikdan jabrlanuvchiga aylanishi xavfi mavjud bo'lgan shaxslarni aniqlash va ularga nisbatan viktimologik profilaktik chora-tadbirlarni qo'llash;

huquqbuzarliklarni sodir etilishida jabrlanuvchilarning tutgan o'rnini hamda jabrlanishning sabablari va ularga imkon bergan shart-sharoitlarni aniqlash va bartaraf etish;

notinch oilalarda yashayotgan shaxslarning zo'ravonliklardan jabrlanish ehtimolini kamaytirish maqsadida tushuntirish ishlarini olib borish;

oiladagi zo'ravonliklardan jabrlanish ehtimoli yuqori bo'lgan shaxslar toifalarini aniqlash;

huquqbuzarliklardan jabrlanganlarning individual va ijtimoiy-psixologik xususiyatlaridan kelib chiqqan holda zarur profilaktika tadbirlarini ishlab chiqish huquqbuzarliklarni barvaqt oldini olishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Xullas, ichki ishlar organlari tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar profilaktika xizmatlari oldiga fuqarolik jamiyati institutlari, jamoat tuzilmalari va keng jamoatchilik bilan barvaqt huquqbuzarliklar profilaktikasini amalga oshirish bo'yicha hamkorlikning yangi usul va shakllarini ishlab chiqishga majbur etmoqda. Chunki, barcha ichki ishlar organlari sohaviy xizmatlari o'rtasidagi hamkorliklarda ham huquqbuzarliklar profilaktikasi bo'yicha asosiy ma'lumotlar jamoatchilikdan kelib tushadi. Bu esa, profilaktika inspektori tomonidan oila-turmush doirasidagi qasddan odam o'ldirish va qasddan badanga shikast yetkazish jinoyatlarining barvaqt oldini olish faoliyatini samarali tashkil etishga xizmat qiladi.